

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10904499>

NOTIQLIK MAHORATINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Rahimova Maftuna

Navoiy Davlat Pedagogika Instituti 1-kurs magistranti

Ilmiy rahbar PhD **Istamova Dilnoza Sadulloyevna**

***Annotatsiya.** Tezis muammosi shundan iboratki, bugungi kunda B2 darajasidagi talabarda notiqlik faoliyati yetarli darajada shakllanmagan va uni rivojlantirish boyicha ba`zi bir murakkabliklarning mavjudligi ushbu soha zaruriyatini kursatadi.*

***Kalit soʻzlar:** Notiqlik, B2 darajasi, oʻqitish, innovatsiya, metod.*

KIRISH

XXI asrga kelib insonlarning fan va texnikaga boʻlgan ehtiyoji kun sari ortib bormoqda, yangi inovatsion texnologiyalar zamon talabiga aylanmoqda. Bundan kelib chiqadiki, endilikda taʼlimda yangi inovatsion metodikalarni qoʻllash, maʼnaviy va interaktiv darslarni joriy etish, texnikaviy, axborotli, audiovizual metodlarni qoʻllash orqali oʻquvchilarning notiqlik saʼnatini oshishiga imkoniyat yaratadi. Biroq, bugungi kunda b2 darajasidagi talabarda notiqlik faoliyatini yetarli darajada rivojlanmaganligi va shakllanmaganligi va uni rivojlantirish boyicha bazibir murakkabliklarni mavjudligi ushbu sohada zaruratini kursatadi.

Ushbu tezisdagi tadqiqot obyekti qilib Navoiy shahar 3-sonli maktabning 11-“A” sinfi olindi. Ushbu sinfdagi 25 ta oʻquvchi boʻlib, notiqlik darajasi oʻrta deb baholandi. Sinfdagi alohida eʼtiborga muhtoj oʻquvchilar soni 8 ta, b2 darajasiga loyiq oʻquvchilar 7 ta, oʻrta toifa 10 ta.

Tadqiqotning asosiy muammosi notiqlik madaniyatini rivojlantirishga toʻsqinlik qilayotgan detallarni aniqlab, ularni bartaraf etishdan iborat. Qolaversa, maqolada notiqlik madaniyatini shakllantirishning oʻquvchilarni axloqiy-estetik tarbiyalashdagi ahamiyati yoritilgan.

Bu holatda asosiy qiyinchilik - notiqlik taʼlimi boʻyicha oʻqituvchilar tayyorgarligi va malakasini oshirish etarli darajada emas. Koʻpgina oʻqituvchilarda notiqlikni samarali oʻrgatish uchun zarur koʻnikma va bilimlar yetishmaydi, ularni qoʻllab-quvvatlash uchun oʻquv dasturlari va resurslar yetishmaydi. Bu esa notiqlik

ta`limiga ko`pincha e`tibordan chetda qoladigan yoki yuzaki va samarasiz tarzda yetkaziladigan holatga olib keladi.

Biz tinglovchilarga til o`rgatish hamda axloqiy-estetik tarbiya berishda notiqlik madaniyatini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish orqali ta`lim sifatini oshirishimiz va o`quvchilarda zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo`lgan quyidagi ko`nikma va qadriyatlarni shakllantirishga yordam berishimiz mumkin:

1. Notiqlik tarbiyasining axloqiy-estetik tarbiyadagi afzalliklari

Notiqlik sa`nati yoshlarga o`zlarining fikrlarini erkin va dalil bayon etishga, o`ziga bo`lgan ishonchining ortishiga sabab bo`ladi. Bundan tashqari notiqlik ta`limi axloqiy va estetik tarbiyada muhim ahamiyatga ega. To`g`ri so`zlash qobiliyati o`ziga ishonch, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, ijtimoiy ko`nikmalarni rivojlantirishning asosiy omili bo`lib, bularning barchasi axloqiy va estetik tarbiyaning muhim tarkibiy qismidir.

Notiqlik ta`limi o`quvchilarga omma oldida nutq so`zlash, o`z fikr va mulohazalarini bildirish imkoniyatini yaratib, o`zlariga ishonchni rivojlantirishga yordam beradi. Tinglovchilar ishonchli va ishonarli gapirishni o`rgansa, ular o`ziga ishonch va qat`iyatli bo`lib qoladilar, bu ularga shaxsiy va professional hayotlarida yordam berishi mumkin.

2. Notiqlik madaniyatini rivojlantirish oldida turgan muammolar

Maktablarda notiqlik ta`limining rivojlanishiga to`sqinlik qilayotgan bir nechta muammolar bor, ular esa axloqiy va estetik tarbiyada notiqlik ta`limining afzalliklaridan foydalanishda to`sqinlik qilmoqda. Asosiy muammolardan biri o`quv dasturida notiqlik mahoratiga e`tibor berilmaganligidir.

Ko`pgina talim jarayonlarida notiqlik talimiga yetarlicha e`tibor berilmagan, o`quvchilarning nutqiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun kerakli qulayliklar yaratilmagan. Bu zamonaviy ta`limda talab qilingan va maktablarda egallangan bilimlar o`rtasidagi farqi keltirib chiqaradi.

3. Maktablarda notiqlik ta`limini takomillashtirish mexanizmlari

Bu muammolarni bartaraf etish uchun o`quvchilarga axloqiy-estetik tarbiya berishda, notiqlik madaniyatini shakllantirishda yangicha dasturlarni yaratish lozim. Notiqlik mahoratini o`quv dasturiga integratsiya qilish, o`qituvchilar malakasini oshirish va yangi imkoniyatlar yaratish, o`quvchilarning darsdan tashqari mashg`ulotlar va tanlovlar orqali amaliyotda qo`llash imkoniyatlarini yaratish, hamda raqamli texnologiyalardan foydalanishni o`rgatishni o`z ichiga oladi.

Darslarimizda quyidagi innovatsion ta`lim texnologiyalaridan foydalanishni lozim bildik, xususan murakkab mavzuni o`quvchilar ongiga osongina etkazish uchun «Aqliy hujum», «Zakovat», «Zigzak», «Interfaol», «O`yin dars», «Munozarali- bahsli

dars», «Sayohat dars», «Musobaqa dars», «FSMU», «Baliq skeleti», «Charxpalak» kShu bilan birga, mamlakatda rasmiy ta'lim tizimi bilan birgalikda respublikaning barcha hududlarida norasmiy va noformal xorijiy tillarni o'qitish, ularda o'quvchilarni chet tillari bo'yicha testlar topshirishga tayyorlash, yoki o'quvchilarning til malakasini o'stirish markazlari ko'plab ochildi va ular keng faoliyat olib bormoqda. Shuningdek, ko'pchilik xorijiy davlatlarning elchixonalari qoshida ham til o'qitish markazlari ochilgan bo'lib, ular istak bildirganlarni o'z mamlakati tiliga o'qita boshladi. Mana shunday til markazlari Germaniyaning DAAD, Koreyaning KOIKA, Yaponiyaning JICA, Isroilning MASHAW, Hindiston madaniyat markazi, AQSHning EDUCATIONAL EXCHANGE PROGRAM, Buyuk Britaniyaning BRITISH COUNCIL kabi tashkilotlari, ularda tashkil qilingan resurs markazlar, madaniyat markazlari, kutubxonalar, internet materiallari, tyutorlik xizmatlari, stajirovkalar va xorijiy ellarga tanlov asosida o'qishga yuborish xizmatlari, shuningdek Xitoy, Fransiya va boshqa davlatlar elchixonalarida tashkil qilingan til markazlari faoliyat olib bormoqda

Pedagogning asosiy vazifasi darslarni interaktiv metodlar va qiziqarli o'yinlar orqali o'tqazishidir. Yangi mavzuga oid kerakli ko'rgazmali qurollar, qisqa savol-javob va testlar tarqatma materiallar o'qituvchilar tomonidan bir kun oldin tayyor holda keltirilishi lozim. Shuningdek baholash mezonlari asosida o'quvchilarni rag'batlantirish va darsga tayyor bo'lmagan o'quvchilarni ogohlantirish maqsaga muvofiq.

Muallimdan talab etiladigan narsa, har bir metodni o'quvchilarning yoshi, qiziqishlari, o'gil va qiz bolalar sonining nisbatlari, o'zlashtirish jarayonining tezligi yoki sekinligi, qobiliyatlari va ustunliklarini hisobga olish va ularni oson yoki qiyin turlarga ajratish va tayyorlash maqsadga muvofiq. Shuningdek, dars davomida harakatli o'yinlardan foydalanish o'quvchilarning mavzuni puxta egallashga samarali yordam beradi.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib aytganda, maqolada o'quvchilarga axloqiy-estetik tarbiya berishda notiqlik tarbiyasining ahamiyati ko'rsatilgan. Tadqiqotlar tahlili va natijalari shuni ko'rsatadiki, notiqlik madaniyatini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish o'quvchilarning shaxsiy va akademik rivojlanishiga, jumladan, muloqot qobiliyatlari, yetakchilik qobiliyatlari, tanqidiy fikrlash qobiliyatlari, o'z-o'ziga ishonchi, o'ziga bo'lgan ishonchi, o'z-o'ziga bo'lgan ishonchi, o'quvchilarning o'zini o'zi boshqarish qobiliyatini rivojlantirishga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Axborot texnologiyalari sohasida ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4851. 06.10.2020

2. Siddiqova Sh." Izlanish samaradorligi" mavzusidagi respublika yosh tilshunoslari va adabiyotshunoslarning ilmiy-nazariy anjumani. "O‘zga gap va matn intertekstualligi" mavzusidagi maqola.B-62

3. Mirsaidov K.J. Ixtisoslik fanlarini o‘qitish va ishlab chiqarish ta‘limi. – Toshkent: Oqituvchi, 2016.